Joseph Schumpeter (1934-yil) innovatsiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy dvigateli sifatida ko'radi. U o'zining mashhur "creative destruction" (yaratuvchi buzilish) konsepsiyasida har bir innovatsiya eski iqtisodiy strukturalarni buzib, yangilarini yaratishini ta'kidlaydi. Bu jarayon doimiy investitsiyalar, texnologik yangilanishlar va moliyalashtirish manbalarining uzluksiz oqimini talab qiladi. Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minoti – kapitalning optimal taqsimoti orqali amalga oshadi. Bu esa investorlar uchun xavf va rentabellik o'rtasidagi muvozanatni topishni talab etadi. Schumpeter fikricha, kapitalizm moliyaviy institutlarning asosiy vazifasi aynan innovatsion jarayonni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Schumpeter modeliga asoslanib, innovatsion investitsiyalarni haddan tashqari ko'paytirish yoki kamaytirish iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Bu holat hozirgi empirik va ekonometrik tadqiqotlarda invers-U bog'liqlik (inverted U-shape relationship) ko'rinishida namoyon bo'lmoqda.

Solow (1957-yil) tomonidan ishlab chiqilgan eksogen o'sish modeli iqtisodiy o'sishning asosiy omillari sifatida kapital, mehnat va texnologiyani ajratib ko'rsatadi. Unga ko'ra, texnologik taraqqiyot iqtisodiy o'sishning muhim, biroq bevosita boshqarib bo'lmaydigan elementi hisoblanadi. Innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligi aynan shu texnologik komponent bilan bevosita bog'liq.

Zvi Griliches o'zining 1979–1990-yillardagi ishlari orqali innovatsion faoliyat va sarmoyalar o'rtasidagi bog'liqlikni empirik tarzda asoslab bergan. U ishlab chiqqan "knowledge production function" konsepsiyasida R&D (ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari) sarmoyalari natijasida yuzaga keluvchi innovatsion mahsulotlar (patentlar, texnologik yechimlar) aniqlanadi. Griliches kvadratik va log-lineer regressiya modellari orqali R&D xarajatlari hamda ularning natijalari o'rtasidagi noxat (nolinear) bog'liqlikni isbotlagan. Bu yondashuv innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda investitsiya hajmining optimal darajasini aniqlash uchun ilmiy asos yaratadi.

Innovatsion o'sish nazariyasiga yangi yondashuv sifatida Aghion va Howitt (1992-yil) tomonidan ishlab chiqilgan "Schumpeterian Growth Theory" alohida o'rin tutadi. Ushbu modelda iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida doimiy texnologik yangilanishlar e'tirof etiladi. Yangi texnologiyalar mavjudlarini "kreativ destruktsiya" orqali siqib chiqaradi. Modelda innovatsiyalarning haddan ortiq yoki yetarli emas darajada moliyalashtirilishi iqtisodiy turg'unlikka yoki resurslarning isrofiga olib kelishi mumkinligi ko'rsatilgan. Shu sababli, moliyalashtirish strategiyasini optimallashtirish innovatsion taraqqiyotning barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.



Barry Hall va Josh Lerner (2010-yil) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari va ularning samaradorligi masalalariga bag'ishlangan. Ular davlat grantlari, soliq imtiyozlari va risk sarmoyalarining innovatsiyalarga ta'sirini o'rganib, ayniqsa kichik va o'rta biznes subyektlari uchun moliyalashtirishdagi muvozanat muhimligini aniqlagan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, samarali moliyalashtirish vositalari bo'lmagan taqdirda innovatsion jarayonlar to'xtab qolishi yoki kutilgan natijalarga olib kelmasligi mumkin. Shu bois, investitsiya hajmini ilmiy asosda belgilash innovatsion siyosatning muhim tarkibiy qismidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar "Toshkent IES" AJning 2013–2023-yillar davridagi moliyaviy hisobotlari, investitsiya ko'rsatkichlari va ishlab chiqarish samaradorligi haqidagi ochiq statistik manbalar asosida yig'ildi. Tahlil uchun kvadratik ekonometrik model qo'llanilib, investitsiya hajmi bilan innovatsion samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik regressiya usuli orqali baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Toshkent issiqlik elektr stansiyasi" AJ mamlakatimizda elektr energiyasini yetkazib berish sohasida muhim o'rin egallaydi. IESning asosiy faoliyati elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarishdan iborat. Elektr stansiyasi 1975-yilda tijorat asosida foydalanishga topshirilgan. 2019-yil 1-iyul holatiga ko'ra, stansiyada o'rnatilgan elektr quvvati 1860 MVtni tashkil etadi: №1,2,3,4,5,9-bloklar – 150 MVt, №6,11,12-bloklar – 155 MVt, 10-blok – 165 MVt. Shuningdek, 7 va 8-bloklar ham mavjud.

IESlarni modernizatsiya qilish va yangi quvvatlarni ishga tushirish bo'yicha keng ko'lamli investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Hayotiy muhim infratuzilmani qo'llab-quvvatlash dasturi: elektr energetika sohasini qo'llab-quvvatlash" loyihasi doirasida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan "Toshkent IES" AJning innovatsion faoliyatini moliyalashtirish maqsadida 8 321,57 ming yevro miqdorida investitsiya ajratilgan.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish va samaradorlikni oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan strategiyalar korxonaning moliyaviy hamda texnologik rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi "Raqqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli¹ Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli² Farmoni milliy iqtisodiyot, sanoat va umuman jamiyatda raqqamli transformatsiyani jadallashtirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar belgilangan. Shunga muvofiq, "Toshkent IES" AJda rejali chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Joriy yildan boshlab, an'anaviy 4-energoblokda raqqamlashtirish ishlari yakunlanib, u yagona tizimga ulanmoqda. Natijada, iste'molchilarga yuqori sifatli elektr energiyasi yetkazib berish yo'lga qo'yildi. Ayni kungacha 61 931 ming kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo'lib, yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 222 441 ming kilovatt-soatni tashkil etmoqda. Bundan tashqari, 303,1 ming kubometr tabiiy gaz iqtisod qilinishiga erishildi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida innovatsion faoliyat nafaqat korxonalar darajasida, balki milliy iqtisodiyot miqyosida ham strategik ahamiyat kasb etib, sanoat, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining raqqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish va barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Innovatsion faoliyatning jadallashuvi natijasida korxonalar yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, innovatsion mahsulot va xizmatlarni yaratish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa ularning xalqaro bozordagi pozitsiyalarini mustahkamlash va barqaror daromad oqimini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish va uning optimal hajmini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi (The Economics of Growth).

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning samarali tizimini shakllantirish korxonalarning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlash, kapital samaradorligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, texnologik modernizatsiya va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish uchun yetarli hajmdagi moliyaviy resurslarga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, innovatsion loyihalarning yuqori darajadagi noaniqligi, uzoq muddatli investitsiya talab qilishi hamda kapitalning qaytish darajasining murakkabligi ushbu faoliyatni moliyalashtirishni yanada murakkablashtiradi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi "Raqqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni: <https://lex.uz/docs/-5841063>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni: <https://lex.uz/docs/-5841063>



Innovatsion investitsiyalarni ajratish va ularni samarali boshqarish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, moliyaviy resurslarning cheklanganligi innovatsion faoliyatga sarmoya kiritishni qiyinlashtiradi. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun bu jarayon murakkab kechadi.

Ikkinchidan, investitsiyalarning yuqori xavfliligi sababli investorlar va moliyaviy institutlar innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Bu esa investitsiya oqimining sekinlashishiga va innovatsion jarayonlarning surunkali moliyaviy tanqislik sharoitida kechishiga olib keladi.

Uchinchidan, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi mavjud innovatsion ekotizimning samaradorligini pasaytiradi. Davlat subsidiyalari va grantlari mavjud bo'lsa-da, ularning taqsimlanish mexanizmlarida samaradorlik yetishmayotgani kuzatilmoqda.

To'rtinchidan, innovatsion investitsiyalarni samarali boshqarish murakkabligi sababli sarmoya yo'naltirilayotgan loyihalarning qaytish darajasini aniq baholash qiyinlashadi. Bu esa investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishda noaniqlikni kuchaytiradi (Economic Welfare and the Allocation of Resources for Invention).

Shu bois, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish va uning optimal hajmini aniqlash nafaqat mikroiqtisodiy, balki milliy iqtisodiy strategiyaning tarkibiy qismi sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Moliyaviy resurslarning to'g'ri taqsimlanishi, innovatsion loyihalarning istiqbolini baholashga oid aniq mexanizmlarni shakllantirish, investitsiyalarning samaradorligini oshirish orqali mavjud cheklovlarni minimallashtirish va innovatsion jarayonlarni barqaror rivojlantirish imkonini beruvchi iqtisodiy modelni ishlab chiqish talab etiladi.

Ushbu tadqiqot bo'limi korxonalar darajasida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish hajmining optimal miqdorini aniqlash va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini shakllantirishga qaratilgan.

"Toshkent IES" AJ faoliyatining moliyaviy ko'rsatkichlari va investitsion faolligi tahlili (2016–2023 yillar)

Yillar	Jami Daromadlar (ming so'm)	Taqsimlanmagan foyda	Asosiy fondlarga investitsiyalar	Kapital quyilmalar	Korxonaga jalb qilingan asosiy investitsiya
2016	857 675 220,0	-123 657 747,0			
2017	435 626 841,0	-85 574 937,0	3 535 844,0	8 455 998,0	
2018	158 160 167,0	49 028 442,0			267 505 916,0
2019	677 976 632,0	2 629 587,0			605 277 761,0
2020	2 149 269 319,0	11 681 267,0	184 707 373,0		1 415 964 336,0
2021	2 654 680 365,0	245 688 579,0	27 547 725,0		295 982 469,0
2022	2 162 633 482,2	7 963 663,3	49 748 193,0		184 221 213,0
2023	1 893 813 064,0	3 919 794,0			

"Toshkent IES" AJ moliyaviy faoliyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, innovatsion strategiya quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda:

Umumiy daromadning o'zgarishi: 2016-yilda 857 675,22 mln so'mni tashkil etgan umumiy daromad 2023-yilda 1 893 813,06 mln so'mga yetgan. Bu kompaniyaning barqaror o'sayotganligini ko'rsatadi.

Foyda dinamikasi: 2016–2017-yillarda kompaniya zarar ko'rgan bo'lsa-da, 2018-yildan boshlab foyda qayd etila boshlagan. 2021-yilda bu ko'rsatkich 245 688,58 mln so'mga yetgan bo'lib, bu holat innovatsion investitsiyalarning samaradorligini isbotlaydi.

Asosiy investitsiyalar hajmi: Innovatsion loyihalarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2018-yilda 267 505,92 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 1 415 964,34 mln so'mga yetgan.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish hajmini optimal darajada belgilash va samarali investitsiya strategiyasini shakllantirish uchun quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilish zarur:

Marjinal tahlil tamoyili – innovatsiyaga yo'naltirilgan har bir qo'shimcha investitsiyaning kutilayotgan iqtisodiy foydasi baholanadi. Innovatsion loyihalarga ajratilgan mablag'ning marjinal rentabelligi tahlil qilinadi va ularning iqtisodiyotga qo'shadigan qiymati aniqlanadi. Ushbu tamoyil investitsiyalarning cheksiz oshirilishi samaradorlikni kafolatlamasligini inobatga olib, optimal moliyalashtirish chegarasini aniqlashga xizmat qiladi.

Kapitalning samarali taqsimlanishi tamoyili – innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan moliyaviy resurslardan maksimal natija olish uchun investitsiyalarning strategik yo'nalishlarini aniq belgilash muhim. Bu tamoyil asosida investitsiyalarni mahsulot innovatsiyalari, texnologik modernizatsiya va ilmiy-tadqiqot loyihalari o'rtasida samarali taqsimlash amalga oshiriladi.



Dinamizm va moslashuvchanlik tamoyili – innovatsion investitsiyalar bozor sharoitlariga moslashishi va zarurat tug'ilganda qayta taqsimlanishi lozim. Bu tamoyil korxonalar uchun moslashuvchan investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish va ularni bozor o'zgarishlariga tezkor moslashtirish imkonini yaratadi.

Xavflarni minimallashtirish tamoyili – innovatsion loyihalarning risk darajasi va kapitalning qaytish ehtimolini baholash asosida optimal moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Yuqori xavfli innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda diversifikatsiya, davlat kafolatlari va xususiy sektor ishtirokidagi sheriklik kabi moliyaviy instrumentlardan foydalanish samarali bo'lishi mumkin (The Financing of R&D and Innovation).

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish hajmini optimal darajada aniqlash uchun kvadratik ekonometrik model qo'llaniladi. Ushbu model innovatsiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi bilan ularning iqtisodiy samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni tavsiflash uchun ishlab chiqilgan. Kvadratik model asosida investitsiya hajmining ortib borishi muayyan nuqtadan so'ng samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi, ya'ni invers-U shaklidagi bog'liqlik mavjudligi tekshiriladi.

Ushbu modelning empirik tahlili uchun "Toshkent Issiqlik Elektr Stansiyasi" AJning so'nggi 10 yillik moliyaviy hisobotlari va asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida ma'lumotlar tahlil qilinadi. Bu yondashuv innovatsion investitsiyalarni strategik boshqarish, moliyalashtirishning optimal miqdorini aniqlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun ishonchli ilmiy asos yaratadi. Innovatsion faoliyat uchun ajratilgan moliyaviy resurslarning optimal hajmini aniqlashda ushbu kvadratik modeldan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

$$INNOV_RATIO_{it} = \beta_0 + \beta_1 \cdot FIN_INVEST_{it} + \beta_2 \cdot FIN_INVEST^2_{it} + \beta_3 \cdot PROFIT_{it} + \beta_4 \cdot FIXED_INVEST_{it} + \beta_5 \cdot CAPITAL_EXP_{it} + \beta_6 \cdot EMPLOYEES_{it} + \beta_7 \cdot MAIN_INVEST_{it} + \beta_8 \cdot ROE_{it} + \epsilon_{it}$$

Bu yerda:

$INNOV_RATIO_{it}$ – korxonaning innovatsion faoliyat uchun ajratayotgan investitsiyalar hajmi (umumiy daromadga nisbatan %);

FIN_INVEST_{it} – korxonaning innovatsiyaga yo'naltirilgan umumiy investitsiyalari;

$FIN_INVEST^2_{it}$ – innovatsion moliyalashtirish hajmining kvadratik hadi, investitsiyalarning optimal darajadan oshishi samaradorlikni pasaytirishi

mumkinligini tahlil qilish uchun qo'shiladi;

$PROFIT_{it}$ – korxonaning sof foydasi;

$FIXED_INVEST_{it}$ – asosiy fondlarga investitsiyalar;

$CAPITAL_EXP_{it}$ – kapital quyilmalar;

$EMPLOYEES_{it}$ – korxonaning umumiy xodimlar soni;

$MAIN_INVEST_{it}$ – korxonaga jalb qilingan asosiy investitsiyalar;

ROE_{it} – Kapital rentabelligi (Return on Equity, ROE%), moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichi sifatida;

ϵ_{it} – Xatolik had bo'lib, modellashtirilmagan ta'sir omillarini qamrab oladi.

Ushbu model asosida korxona innovatsion faoliyatiga ajratilishi zarur bo'lgan optimal moliyalashtirish hajmi kvadratik funksiyaning ekstremum nuqtasi orqali hisoblanadi. Optimal moliyalashtirish darajasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$FIN_INVEST^* = -$$

Bu korxonaning innovatsion faoliyatga yo'naltirishi lozim bo'lgan optimal investitsiya miqdorini aniqlashga yordam beradi.

OLS regressiya natijalari

O'zgaruvchi	Koef	Std. xatolik	t-stat	p-qiyamat
const	-4.6319	3.984	-1.163	0.248
FIN_INVEST	0.5092**	0.042	11.984	0.020
FIN_INVEST ²	-0.0095*	0.000	-21.536	0.060
PROFIT	0.3552**	0.042	8.437	0.040
FIXED_INVEST	0.1033**	0.021	4.808	0.011
CAPITAL_EXP	0.1854***	0.038	4.874	0.000
EMPLOYEES	-0.0002**	0.000	-2.356	0.020
MAIN_INVEST	0.1487**	0.031	4.797	0.042
ROE	0.2679***	0.043	6.233	0.000



Yuqorida jadval natijalariga ko'ra, FIN_INVEST (investitsiya hajmi) koeffitsiyenti (0.5092) ijobiy va statistik jihatdan sezilarli (*p-qiyamat=0.020, sig=**), ya'ni investitsiyalar hajmi oshishi bilan innovatsion faoliyatning samaradorligi ham oshadi. Bu korxonalar tomonidan investitsiyalarning innovatsiyalarga yo'naltirilishi ularning texnologik taraqqiyoti va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi. FIN_INVEST² (kvadratik had) koeffitsiyenti -0.0095, bu esa Invers-U shaklidagi bog'liqlikni tasdiqlaydi, ya'ni investitsiyalar ma'lum optimal nuqtadan oshib ketganda innovatsion faoliyatning samaradorligi pasayadi (*p-qiyamat= 0.060, sig = *). Bu natija investitsiyalarning optimal darajasini belgilash zaruratini ko'rsatadi, chunki mablag'larning haddan tashqari ko'p ajratilishi ularning samarasiz taqsimlanishiga olib kelishi mumkin.

PROFIT (korxona foydasi) koeffitsiyenti 0.3552 va statistik jihatdan sezilarli (*p-qiyamat= 0.040, sig = **), bu esa sof foydaning oshishi korxonalarning innovatsion investitsiyalarni kengaytirish imkoniyatlarini yaratishini ko'rsatadi. Innovatsiyalarga ajratiladigan mablag'lar korxonalarning daromadlari bilan bog'liq bo'lgani uchun, korxona moliyaviy barqarorligi innovatsion rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. FIXED_INVEST (Asosiy fondlarga investitsiyalar) koeffitsiyenti 0.1033 va statistik jihatdan sezilarli (*p-qiyamat= 0.011, sig = **), bu esa korxonalarning asosiy aktivlarga investitsiya kiritishi innovatsion faoliyat uchun muhim resurs bo'lishini ko'rsatadi.

CAPITAL_EXP (Kapital xarajatlar) koeffitsiyenti 0.1854 va juda sezilarli (*p-qiyamat= 0.000, sig = ***), ya'ni kapital xarajatlarning oshishi innovatsion faoliyatning o'sishiga bevosita ta'sir qiladi. Bu natijalar korxonalar tomonidan kapital qo'yilmalarni oshirish innovatsion rivojlanishga kuchli turtki berishi mumkinligini tasdiqlaydi. EMPLOYEES (Xodimlar soni) koeffitsiyenti -0.0002 va statistik jihatdan sezilarli (*p-qiyamat= 0.020, sig = **), ya'ni xodimlar sonining oshishi innovatsion faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu natija shuni anglatadiki, innovatsion faoliyat korxonalar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri inson kapitaliga emas, balki yangi texnologiyalar, avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali rivojlanadi.

MAIN_INVEST (Jalb qilingan asosiy investitsiyalar) koeffitsiyenti 0.1487 va statistik jihatdan sezilarli (*p-qiyamat= 0.042, sig = **), bu esa tashqi moliyaviy manbalarning innovatsion faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Bu natija korxonalar uchun davlat subsidiyalari, grantlar yoki xususiy sektor hamkorliklari orqali jalb qilinadigan investitsiyalarning innovatsion rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi. ROE (Kapital rentabelligi, Return on Equity) koeffitsiyenti 0.2679 va juda sezilarli (*p-qiyamat = 0.000, sig = ***), bu esa moliyaviy barqarorlikning oshishi innovatsiyaga ajratiladigan investitsiyalar hajmini ham oshirishini tasdiqlaydi. Ya'ni, kapital samaradorligi yuqori bo'lgan korxonalar innovatsion rivojlanishga ko'proq mablag' ajratish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Olingan regressiya natijalari asosida innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning optimal hajmini aniqlash imkoniyati yuzaga keladi. Mazkur baholash innovatsion investitsiyalar hajmi va ularning samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil qilishga yordam beradi. Regressiya modeli orqali investitsiya hajmining innovatsion faoliyat samaradorligiga ta'siri, shuningdek, moliyalashtirish hajmining optimal darajasi aniqlanadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, FIN_INVEST (investitsiya hajmi) va FIN_INVEST² (kvadratik had) o'rtasidagi bog'liqlik Invers-U shaklida ekanligi aniqlandi. Bu shuni anglatadiki, investitsiyalarning oshishi dastlab innovatsion rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, biroq ma'lum nuqtadan oshgach, moliyalashtirishning haddan tashqari ortishi samaradorlikning pasayishiga olib keladi. Shu sababli, optimal moliyalashtirish darajasini aniqlash investitsiyalarning samaradorligini maksimal darajada oshirish uchun muhim omil hisoblanadi.

FIN_INVEST' = - = 26,8%

O'tkazilgan ekonometrik tahlillar natijasida, "Toshkent Issiqlik Elektr Stansiyasi" Aj da innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning optimal darajasi 26,8% deb baholandi. Bu esa xorijiy tajribaga mos keluvchi ko'rsatkich bo'lib, innovatsiyaga yo'naltirilishi lozim bo'lgan mablag' umumiy investitsiyalarning taxminan 26,8% ini tashkil etishi zarurligini ko'rsatadi. Ushbu ilmiy asoslangan yondashuv jamiyatning innovatsion rivojlanishi uchun eng samarali moliyalashtirish strategiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur empirik-statistik modelning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida:
 innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning optimal samaradorlik darajasini aniqlash;
 moliyaviy resurslarni eng samarali yo'nalishlarga yo'naltirish;
 investitsiyalarning noto'g'ri taqsimlanishini oldini olish;
 innovatsion rivojlanishning barqarorligini ta'minlash imkoniyati yaratildi.

Bundan tashqari, ushbu yondashuv mavjud moliyaviy resurslarning optimal nisbatda taqsimlanishini ta'minlab, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Moliyalashtirish hajmining optimal darajada belgilanishi investitsiyalarning qaytish darajasini maksimal darajaga yetkazish, korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion loyihalarni barqaror moliyalashtirishni ta'minlashga imkon beradi (*Empirical Patterns in R&D Investment and Productivity Growth*).

Mazkur ilmiy asoslangan iqtisodiy model natijasida, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish strategiyasining samaradorligi 90 foiz aniqlik bilan belgilandi. Bu esa investitsiyalarning optimal taqsimlanishi orqali innovatsion faoliyatni ilgari surish va korxonalarning texnologik rivojlanishini jadallashtirishga zamin yaratadi.



Shunday bois, regressiya natijalari va empirik-statistik tahlillarga asoslangan holda, korxonalarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning optimal darajasini 26,8% etib belgilash tavsiya etiladi. Ushbu yondashuv investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini maksimal darajaga yetkazish, innovatsion jarayonlarning barqarorligini ta'minlash va korxonalar tomonidan resurslarni samarali taqsimlash strategiyasini shakllantirish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tadqiqotlar va empirik tahlillar asosida innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda investitsiya hajmining optimal darajasini aniqlash nafaqat korxona darajasida, balki umumiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va innovatsion siyosatning strategik yo'nalishlarini shakllantirishda ham muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega ekani aniqlandi. Tadqiqotda kvadratik ekonometrik model orqali investitsiyalarning innovatsion samaradorlikka ta'siri chuqur tahlil qilinib, optimal moliyalashtirish darajasi 26,8% etib belgilandi. Bu natija korxonalarda resurslarni qayta taqsimlash, investitsiya strategiyalarini takomillashtirish va texnologik modernizatsiyani tizimli qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi.

Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda innovatsion ekotizim samaradorligini oshirish va investitsiyalarning rentabelligini ta'minlash uchun moliyalashtirish jarayonida ilmiy asoslangan iqtisodiy modellar va empirik yondashuvlardan foydalanish zarur. Quyidagi asosiy xulosalar kelgusidagi ilmiy izlanishlar, siyosiy qarorlar va amaliy choralarni belgilashda muhim yo'nalishlarni ifodalaydi:

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish hajmini optimal aniqlash – korxonalarning texnologik yangilanishi va raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, investitsiya hajmi va innovatsion samaradorlik o'rtasida invers-U shaklidagi bog'liqlik mavjud bo'lib, bu Schumpeter va Griliches nazariyalarining amaliy tasdig'idir. Moliyalashtirish hajmining haddan ortiq oshirilishi emas, balki ilmiy asoslangan optimal darajada bo'lishi samaradorlikni ta'minlaydi.

Kvadratik ekonometrik model asosida hisoblangan 26,8% optimal investitsiya darajasi korxonalarning umumiy investitsiya portfelida innovatsiyaga yo'naltiriladigan resurslar uchun benchmark (ma'lumot mezon) sifatida xizmat qilishi lozim. Ushbu ko'rsatkich asosida shakllantirilgan moliyaviy strategiyalar resurs isrofgarchiligini kamaytiradi va texnologik transformatsiyani jadallashtiradi.

Innovatsion investitsiyalar samaradorligini oshirishda foydaning ijobiy dinamikasi (PROFIT) muhim ahamiyat kasb etadi. Empirik tahlilda sof foyda ko'rsatkichining investitsion faollik bilan statistik bog'liqligi aniqlangan. Shuning uchun korxonalarning ichki moliyaviy imkoniyatlariga asoslangan holda sarmoya kiritishini rag'batlantirish maqsadida foyda solig'i bo'yicha maqsadli imtiyozlar, reinvestitsiya bonuslari kabi mexanizmlarni qo'llash taklif etiladi.

Rentabellik (ROE), asosiy fondlarga investitsiyalar va kapital quyilmalar innovatsion faoliyat samaradorligining asosiy drayverlari sifatida aniqlangan. Shu bois, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va asosiy aktivlarga yo'naltirilgan investitsiyalarni kengaytirish korxonaning innovatsion salohiyatini oshirish vositasidir.

Moliyalashtirish siyosatini ishlab chiqishda inson resurslari emas, balki raqamli texnologiyalar va yuqori samarali ishlab chiqarish vositalariga yo'naltirilgan investitsiyalar ustuvor yo'nalish bo'lishi kerak. Bu xulosa zamonaviy mehnat unumdorligi va texnologik innovatsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikdan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalari asosida "Toshkent IES" AJ va unga o'xshash sanoat korxonalari uchun innovatsion faoliyatni moliyalashtirish strategiyasi har yili kvantitativ (ekonometrik) baholash asosida qayta ko'rib chiqilishi va optimal investitsiya chegarasi belgilanishi lozim. Bu esa moliyaviy resurslardan maksimal samaradorlik bilan foydalanishni ta'minlaydi hamda sanoatni innovatsion jihatdan transformatsiyalashga xizmat qiladi.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda investitsiya hajmining optimal darajasini aniqlash – bugungi iqtisodiy islohotlar, texnologik modernizatsiya va raqobatbardoshlikni ta'minlash sharoitida nafaqat korxona, balki milliy iqtisodiyot darajasida ham strategik masala hisoblanadi. Olingan natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, investitsiya hajmining ortishi dastlab innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi, ammo ma'lum chegaradan so'ng ortiqcha sarmoyalar resurslarning samarasiz taqsimlanishiga olib keladi. Shu sababli, innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda strategik qarorlar ilmiy asoslangan modellarga tayangan holda qabul qilinishi kerak.

Bundan tashqari, foyda, asosiy fondlarga sarmoya, kapital qo'yilmalar, moliyaviy barqarorlik va tashqi investitsiyalar innovatsion investitsiyalar samaradorligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Bu esa korxona darajasida investitsiya siyosatini kompleks optimallashtirish zarurligini anglatadi. Tadqiqotdan olingan ilmiy xulosalar va amaliy natijalar O'zbekistonda hamda boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsion siyosatni shakllantirish, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va resurslar taqsimotini strategik boshqarish uchun muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, iqtisodiy samaradorlikni



maksimal darajaga yetkazish uchun moliyalashtirish strategiyalariga kvantitativ va dinamik optimallashtirish yondashuvlarini integratsiyalash dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Schumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. Harvard University Press.
2. Griliches, Z. (1979). Issues in Assessing the Contribution of R&D to Productivity Growth. The Bell Journal of Economics, 10(1), 92–116. <https://doi.org/10.2307/3003321>
3. Griliches, Z. (1990). Patent Statistics as Economic Indicators: A Survey. Journal of Economic Literature, 28(4), 1661–1707.
4. Aghion, P., & Howitt, P. (1992). A Model of Growth Through Creative Destruction. Econometrica, 60(2), 323–351. <https://doi.org/10.2307/2951599>
5. Hall, B. H., & Lerner, J. (2010). The Financing of R&D and Innovation. In B. H. Hall & N. Rosenberg (Eds.), Handbook of the Economics of Innovation, Vol. 1 (pp. 609–639). Elsevier. [https://doi.org/10.1016/S0169-7218\(10\)01014-2](https://doi.org/10.1016/S0169-7218(10)01014-2)
6. Hall, B. H., & Lerner, J. (2010). The Financing of R&D and Innovation. In: Hall, B. H., & Rosenberg, N. (Eds.), Handbook of the Economics of Innovation. Elsevier, Vol. 1, pp. 609–639.
7. Klette, T. J., & Griliches, Z. (2000). Empirical Patterns in R&D Investment and Productivity Growth: A Critical Review. The Economic Journal, 110(463), 391–410.
8. Aghion, P., & Howitt, P. (2009). The Economics of Growth. MIT Press, pp. 1–390.
9. Arrow, K. J. (1962). Economic Welfare and the Allocation of Resources for Invention. In: The Rate and Direction of Inventive Activity: Economic and Social Factors, pp. 609–626.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>